

**DUNYOVİYLIK – O'ZBEKİSTONDA DEMOKRATİK TARAQQIYOTNING
METODOLOGIK ASOSI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10672033>

Xushvaqt Doniyorov

Alfraganus universiteti, Pedagogika fakulteti dekani,

Annotatsiya: Maqolada dunyoviylik va uning demokratik davlatni shakllantirish va rivojlantirishda tutgan o'rni, shuningdek davlat boshqaruvida diniylik hamda dunyoviylik o'rtasidagi mutnosiblikni ta'minlash masalasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: diniylik, dunyoviylik, dahriylik, sekulyarizm, tolerantlik, qadriyat, demokratiya, jamiyat, ijtimoiy ong, g'oya, mafkura.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, mustaqillikni qo'lga kiritgan har bir davlat uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish hisoblanadi. Bu masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning "Shved modeli", "Amerika modeli", "Yapon modeli" kabi tushunchalar ishlatala boshlandi. Ushbu tushunchalar negizida muayyan mintqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo'l bilan, qay yo'sinda amalga oshirishi bilan bir-biridan farqlanadi. Taraqqiyot modelining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri, bu davlatning diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabati bilan xarakterlanadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy-ma'naviy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modeli hamdir. "Mustaqil taraqqiyot yillarda Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda" [1]. Shuning uchun ham u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning 80-yillarida S.Xantington va F.Fukuyamalar tomonidan bugungi globallashuv jarayonida Sharq va G'arb sivilizatsiyasi to'qnashuvi muqarrarligini ilmiy asosalashga harakat qilganlar [2]. Rus faylasufi I.Ponkin tomonidan dunyoviy davlatda davlatning din va diniy tashkilotlardan mustaqil bo'lishi, qaysidir din yoki mafkuraning majburiyat sifatida o'rnatilmasligi, shuningdek, dunyoviy

davlatning davlatning asosiy belgilari sifatida har qanday diniy mafkuraning davlat boshqaruvining mutlaq suverenetitetiga qarshi qo'yilishiga yo'l qo'yilmasligi, diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qonuniy sharoit yaratilgan bo'lishi hamda davlat ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega bo'lishi kabi xususiyatlarni sanab o'tilgan [3]. Yana bir rus faylasufi O.Shaxov tomonidan dunyoviy davlatlarning turli modellari, jumladan, Amerika, Shved va nemis modellari hamda ularning o'ziga xususiyatlari batafsil tahlil qilingan [4]. Yana bir rus faylasufi S.A. Denikayeva tomonidan dunyoviy davlatlar davlat va din munosabtlarini amalga oshirish mexanizmlari ham da metodlariga asosan klassik, indifferensial (lot. "indifferentia" – farqsiz, farqi yo'q), preferensial (lot. "praeferens", "praeferentis" – afzal, afzallik) turlarga bo'linishini alo hida ta'kidlab o'tilgan [5]. Dunyoviy davlat modelining klassik turi davlatning diniy birlashmalar bilan keng hamkorlikda faoliyat olib borishi bilan harakterlanadi.

Dunyoviy davlat modelining indifferensial turi davlatning har qanday diniy birlashmalardan ma'lum masofani saqlashga kuchli intilishi va qaysidir dinning afzallikkari ifodalanishiga norasmiy taqiq yaratishi bilan xarakterlidir.

Dunyoviy davlat modelining preferensial turi mamlakatda davlat bir yoki bir necha dinlarga nisbatan maxsus nuqtai nazarga ega ekanligini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi g'arb olim va mutafakkirlarining dunyoviylik hamda uning demokratik davlatchilikni shakllantirishda tutgan o'rniغا nisbatan bo'lgan ilmiy nuqtai nazar va munosabatlarini bayon qilishdan maqsad, (bunday nuqtai nazarlarni yana ko'plab keltirish mumkin) dunyoviylik ko'p qirrali, ko'p darajali kontsepsiya bo'lib, demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biri ekanligini ta'kidlashdir. Chunki bugungi kungacha dunyoviylik davlat va jamiyatning rivojlanishida demokratik qadriyatlardan biri sifatida ma'lum rol o'ynagan.

Olimlar dunyoviylik va uni demokratik taraqqiyotning metodologik asosi sifatida tadqiq qilishda turli metodlardan foydalanganlar. Jumladan, rus faylasufi O.Shaxov va olim T.Karimlar dialektik metoddan, rus faylasufi I.Ponkin, S.A. Denikayevalar ratsionalistik metoddan foydalanishga harakat qilganlar.

MO. Shaxov, Ye. M.Miroshnikova, A.V. Romashkolar dunyoviylik hamda uning demokratik davlatchilikni shakllantirishda tutgan o'rnnini huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilganlar.

Tahlil va natijalar. XXI asr boshlariga kelib iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalaridagi o'zaro yaqinlashuv, muloqot va ta'sir o'zining kulminatsiyasiga yetdi. Bunday tendensiya G'arb olimlari tomonidan XX asrning 80-yillaridayoq fahmlangan va bashorat qilingan edi. Xususan, AQShning ko'zga ko'ringan faylasuf olimlaridan S.Xantington va F.Fukuyamalar "tamaddunlar to'qnashuvi" haqida ilmiy farazni olg'a surgan edilar [6]. Milliy mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq bu konseptual falsafiy masala ko'tarilgan va unga Birinchi Prezident I.A.Karimov muayyan aniq javob bergen. 1996-yil 16-fevralida Rossiya ommaviy axborot sohasi vakillari – ko'zga ko'ringan jurnalistlarni qabul qilib, qator dolzARB masalalar – Afg'oniston masalasi va xususan, islom dunyosi masalasi haqida

jurnalistlarga javob berar ekan, bugungi globallashuv sharoitlarida madaniyatlarning to'qnashuvi xavfi xususida gapirish xatarli ekanligini ta'kidlagandi.

O'zbekiston ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali, shuning bilan birga aholining ko'pchiligini musulmonlar tashkil etadigan mamlakat. Rus jurnalistlari O'zbekiston islam madaniyati yoki islam dunyosiga mansub mamlakat ekanligiga sha'ma qilib, uning dunyoviy taraqqiyot tanlovin shubha ostiga qo'ymoqchi bo'lishdi. Bunday siyosiy o'yinni Birinchi Prezidentimiz o'z vaqtida fahmladi va quyidagicha javob bergen edi: "Siz islam dunyosi haqida gapirayotganingizda menda darhol bir savol tug'ildi: islam dunyosi nimani anglatadi? Demak, biz "katoliklar dunyosi", "xristianlar dunyosi" deyishimiz kerak ekanda? Bugun sobiq sho'ro hududida goh slavyanlar ittifoqi, goh Markaziy Osiyo mintaqasi haqida gapirish rusum bo'lgan vaziyatda turli narsalarni aralashtirish mumkin emas. Shu bois, qachonki "Islam dunyosi", "islom qadriyatları", "islom sivilizatsiyasi" haqida gap borar ekan, men mazkur qadriyatlarni qandaydir siyosiy maqsadlarga xizmat qiluvchi qadriyatlar emas, balki umuminsoniy sivilizatsiyaning boyligi deya tushunaman" [7]. Ushbu javobning o'zi XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib paydo bo'lgan hamda bugun avj olayotgan G'arb va islam dunyosi o'rtaqidagi ziddiyatlarni to'g'ri hamda ilmiy hal qilish zaruriyatini isbotlaydi.

Hozirgi vaqtida "Islam demokratiyası" tushunchasi ham ma'lum bir g'oya sifatida mafkura maydoniga chiqmoqda. Lekin bu g'oya tom ma'noda to'liq dunyoviy xarakter kasb eta olmaydi. Ushbu model diniy mazmunga ega bo'lib, butun insoniyatning mushtarak manfaatlarini qamrab ololmaydi. Hozirgi paytda musulmon mamlakatlarida tarqalayotgan din niqobidagi ekstremistik va fundamentalistik qarashlarning ko'rinishlari turlicha bo'lib, mohiyatan bir xillikni tashkil etadigan qarashlardan tarkib topadi. Ya'ni, "Bir mohiyat ko'pgina mazmunlarda namoyon bo'ladi, lekin mazmun ikki yoki undan ortiq mohiyatlarda namoyon bo'lishi mumkin emas" [8], degan falsafiy qoidani yana bir bor tasdiqlab kelmoqda. Bunda mohiyat har qanday diniy ekstremistik va fundamentalistik qarashlarning ko'rinishlari turlicha bo'lib, mohiyatan bir xillikni tashkil etadigan qarashlardan tarkib topadi.

Dunyoviy demokratik taraqqiyot yo'lining o'ziga xosligi shundaki, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishni emas, balki dinni jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan omil sifatida tushuntirishga harakat qiladilar. Ammo dunyoviylik, bu dahriylik emas. Dunyoviy davlatda davlatning din va diniy tashkilotlardan mustaqil ekanligi, qaysidir din yoki mafkuraning majburiyat sifatida o'rnatilmaganligi, ma'lum bir din yoki mafkura ta'sirida hukmon tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'yimasligi alohida xususiyatdir. Bu savolga aniq javob berish uchun dunyoviy davlatning o'ziga xos belgilarini tahlil etishga to'g'ri keladi [9]. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida dunyoviy demokratik davlatning asosiy paradigmalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) davlatning diniy va mafkuraviy manbalardan mustaqil ekanligining qonun asosida mustahkamlanganligi;

- 2) har qanday diniy mafkuraning davlat boshqaruvining mutlaq suverenetitetiga qarshi qo'yilishiga yo'l qo'yimasligi;
- 3) mafkurani targ'ib qilishga yo'naltirilgan diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi;
- 4) majburiy din yoki mafkuraning yo'qligi;
- 5) diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qonuniy sharoit yaratilganligi;
- 6) diniy birlashmalarning qonun oldida tengligi;
- 7) davlat ta'lif tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi;
- 8) din yoki mafkuraning majburan o'rnatilishiga yo'l qo'yimasligi [10] kabi xususiyatlardir.

Ko'pgina davlatlar dunyoviy demokratik davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilgan holda davlatning dinga va diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabatini amalga oshirish mexanizmlarini yaratish masalasiga turlicha yondashadilar. Shu nuqtai nazaridan bir nechta zamonaviy dunyoviy davlatning modellarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Amerika modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli o'z xarakteriga ko'ra ancha liberal va din erkinligini maksimal darajada ta'minlashga harakat qiladi. Bu, avvalambor, tarixiy faktorlar asosida tushuntiriladi, ya'ni amerika xalqining imigrant ekanligi, u yoki bu konfessiya nuqtai nazaridan chuqur tarixga ega emasligidir. Shuning uchun bu yerda "qadriyat" masalasi amaliy jihatdan ahamiyatga ega emas. Shu bilan birga biz dinni davlatdan to'liq ajratilganligini aniqlay olmaymiz. Bundan tashqari, xristian dini ijtimoiy kuchlarning mavjud moslashuvini va umuman, mamlakat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan asosiy omil sifatida tan olinadi.

AQShda hozirga qadar Kongress palatalari majlisi nasroniylar jamoasi tomonidan ochiladi, Prezident o'z lavozimiga kirishi oldidan ruhoniylar oldida muqaddas Injil kitobiga qasamyod qiladi, sudda, armiyada qasamyod qilishda ham nasroniylik dinining formulalari saqlab qoltingan; 1962-yilda Oliy Sud qaroriga asosan maktablarda dars oldidan ibodatning taqiqlanishi hozirgacha demokratlar (taqiq tarafdozlari) va respublikachilar (taqiqga qarshilar) o'rtasida siyosiy kurash mavzusiga aylangan.

Fransuz modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli bugungi kungacha bir necha bosqichlarni bosib o'tgan, 1789-yilgi Deklaratsiyadan boshlangan, rasmiy ravishda cherkov va davlatning ajralishi e'lon qilingan. 1905-yilgacha Katolik cherkovi davlat dini bo'lib qoldi. "Konstitutsiya 1958-yilda Fransiyani dunyoviy davlat deb e'lon qildi va quyidagi asosiy tamoyillarni tasdiqladi: vijdon erkinligi va din erkinligi; qaysidir cherkovning rasmiy hukmron mavqega ega bo'lishi taqiqlanadi va barcha cherkovlarning qonun oldida tengligi ta'minlanadi; diniy e'tiqodni ochiq ifodalash uchun qonuniy erkinlik beriladi. Yuqoridaq tamoyillar davlat muassasalari, xususan, maktab va ta'lif olish huquqi bilan to'ldiriladi" [11]. Fransiyaga xos xususiyat shundan iboratki, "integral" dunyoviylik davlat organlari shakllanishi va faoliyatining rasmiy-huquqiy hamda mazmun jihatdan ajralmas qismiga aylanadi. Davlat va konfessiyalarning munosabatlarida davlatning tartibga soluvchi tashkilot sifatida passivligini nazarda tutadi. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini

hurmat qilish uchun davlat cherkovlarning erkinligi va mustaqilligini tan oladi hamda fuqarolarga davlat muassasalari va binolarida diniy xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, fuqarolarning farzandlarini ota-onalarining e'tiqodlari asosida tabiyalash huquqi ta'minlanadi va davlat maktablarida diniy darslar o'tilishiga imkon beriladi.

Bizning nazarimizda, diniy tashkilotlarning faoliyatini tartibga solishda davlat rolining maksimal darajada passivligini ta'minlovchi bu model fuqarolarning erkinligi va huquqlari yuqori darajada ta'minlangan, ya'ni kuchli fuqarolik jamiyatini qura olgan mamlakatlardagina samarali bo'lishi mumkin. Chunki bunday vaziyatda, fuqarolik jamiyatni diniy tashkilotlarning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Nemis modeli. Germaniyada 1949-yilda qabul qilingan Konstitutsiya davlat va konfessiyalar munosabatining huquqiy asosi hisoblanadi. Asosiy qonun quyidagi prinsipial holatlarni o'z ichiga oladi: "...davlat cherkovi bo'lmaydi. Diniy jamiyatda birlashmalarning erkinligi kafolatlanadi. Diniy jamiyat uyushmalar faoliyatiga hech qanday cheklov qo'yilmaydi" [12]. Umuman, nemis qonunchiligidagi birlashmalar ikki turga bo'linadi: 1. Diniy. 2. Dunyoviy faoliyat bilan shug'ullanadigan birlashmalardir. Birinchi toifaga diniy jihatdan ushbu atama an'anaviy tushunchalarga mos kelishini aniqlovchi birlashmalar kiradi (Yevangeliya va Katolik cherkovlarning yozishmalari nazarda tutiladi). "Shunday qilib, Yevangeliya va Katolik cherkovlari bir qator qo'shimcha huquq va erkinliklarga ega ekanligi bilan boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan alohida mavqega ega bo'ladilar" [13]. Shuningdek, birinchi gruppaga Germaniyada joylashgan boshqa diniy tashkilotlar (Islom, Pravoslaviya va h.k.) ham kiradi. Ularning barchasi bugungi kunda ham ijtimoiy huquq korporatsiyasi bo'lib qolmoqda va davlatning yordami va qo'llab-quvvatlashidan foydalanishi mumkin.

Germaniyadagi ta'lim tizimi dunyoviylashtirishga bo'y sindirilmagan, ya'ni universitetlarda teologiya fakultetlari mavjud. Umumiy davlat ta'lim tizimi "Din" fanini majburiy ravishda o'qitishni nazarda tutadi. Konstitutsiyaga ko'ra, ushbu fan muayyan dinning asosiy tamoyillariga muvofiq o'qitiladi.

Ko'pgina davlatlarning davlat va din munosabatlarini hal etish metodlari hamda mexanizmlarini o'r ganish natijasini optimallashtirgan holda dunyoviy taraqqiyot modelini 3 ga bo'lish mumkin:

- 1) klassik. Fransiya, Rossiya, O'zbekiston;
- 2) indifferensial (lot. "indifferentia" – farqsiz, farqi yo'q). AQSh, Yaponiya;
- 3) preferensial (lot. "praeferens", "praeferentis" – afzal, afzallik). Italiya, Isroil, Germaniya, Polsha, Ispaniya.

Dunyoviy davlat modelining klassik turi davlatning diniy birlashmalar bilan keng hamkorlikda faoliyat olib borishi bilan harakterlanadi. Davlat va diniy birlashmalarning hamkorligi, bir tomon dan, turli sohalar, jumladan, ta'lim, madaniyat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi, ikkinchi tomon dan, diniy va boshqa

sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin bo'lgan millatlararo va dinlararo nizolarning oldini olishga, ijtimoiy kelishuvning shakllanishiga o'zining munosib hissasini qo'shami. Davlatlarning dunyoviy demokratik taraqqiyoti modellari orasida uning klassik turi o'zining pozitiv xarakteri bilan eng optimal variant hisoblanadi. Yuqoridagi biz tahlil qilgan davlatlar ichida "Fransuz modeli"ni dunyoviy taraqqiyot modelining ushbu turiga kiritishimiz mumkin.

Dunyoviy davlat modelining indifferensial turi davlatning har qanday diniy birlashmalardan ma'lum masofani saqlashga kuchli intilishi va qaysidir dinning afzallikkari ifodalanishiga norasmiy taqiq yaratishi bilan xarakterlidir. Adabiyotlarda bunday model ba'zan "dunyoviy yoki fuqaroviylar din" tushunchasini anglatadi [14]. AQSh aholisining aksariyati dinga (protestant) e'tiqod qilishlariga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSh Yuqori Sudining qarorlarida de-xristianlashtirish holatlari kuzatilgan. Masalan, o'quv darsi boshlanishidan oldin ibodat qilishga va Injil motivlarining amerika davlatchiligining ramzi sifatida tasvirlanishiga taqiqlar joriy etilgan [15]. Shunday bo'lsada, ko'pgina xristian dinining ramzlari AQShning davlat atributlari bilan birgalikda tasvirlanayotgan holatlар kuzatilmogda. Masalan, "Amerika modeli" tahlilida ko'rib chiqqanimizdek, Qo'shma shtatlar Prezidenti lavozimiga kirishish inaguratsiyasida Bibliya kitobiga qasamyod qilinadi yoki Kongress majlislari nasroniy diniy jamoalar tomonidan ochiq deb e'lon qilinadi.

Dunyoviy davlat modelining preferensial turi mamlakatda davlat bir yoki bir necha dinlarga nisbatan maxsus nuqtai nazarga ega ekanligini bildiradi. Davlatning diniy birlashmalarga bo'lgan munosabati, odatda, ularning yaqin tarixda mavjud bo'lgan aloqalari bilan bog'liq. Bunday mamlakatlarda qonuniy faoliyat yuritayotgan ko'pgina diniy birlashmalar o'tmishda hokimiyatga ega bo'lganlar. Masalan, yuqorida ko'rib chiqqan davlatlarimizdan "Nemis modeli"ni kiritishimiz mumkin. Chunki Germaniyadagi Yevangeliya va Katolik cherkovlari bir qator qo'shimcha imtiyozlarga ega ekanligini ko'rib chiqdik. Italiyadagi Rim katolik cherkovi ham shular jumlasidandir. Bunday diniy birlashmalar qisman davlat funksiyalarini, jumladan, ta'lif sohasida bajarishlari mumkin. Alovida diniy birlashmalarning davlat bilan bo'lgan munosabatlaridagi imtiyozli mavqeい hamda madaniy jihatdan unga tegishli doktrina aholining aksariyat qismi tomonidan davlat hokimiyatining vakillik va ijro hokimiyati qo'llab-quvvatlanishi natijasida saqlab qolinadi. Imtiyozlar turli shakllarda, jumladan, soliq imtiyozlarini berish yoki budget mablag'lari hisobidan din peshvolari faoliyatini moliyalashtirish sifatida amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dunyoviy davlatning afzallikkari ko'proq uning klassik turida namoyon bo'ladi. Chunki bu turida ko'pmillatli va ko'pkonfesssiyali mamlakatlarda milliy, diniy va boshqa mansublikdan kelib chiqqan holda alovida guruh yoki guruh vakillariga imtiyoz berilmaydi. Millati va dinidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari birdek ta'minlanadi, aks holda manfaatlar muvozanati buziladi va ijtimoiy beqarorlikning kelib chiqishiga zamin yaratiladi. Bundan tashqari dunyoviylik davlatga aholining turli guruhlari manfaatlarini ob'ektiv baholash va qarorlar qabul qilish

imkoniyatini beradi, chunki uning neytral pozitsiyasi davlat boshqaruvini manfaatdor guruhlarning bosimidan himoyalaydi. Shu bilan birga, mutaxassislar shu paytgacha dunyoviy davlatning ideal modeli yaratilmaganligini ta'kidlaydilar. Davlatning dunyoviy modelida yuqorida aytib o'tilgan madaniy hamkorlik davlat taraqqiyotidagi tarixiy, milliy va boshqa madaniy xususiyatlarni dunyoviylik prinsipi bilan birlashtiradi, ularning sintezlashuvi davlat munosabatlarini yangi sifat darajasiga ko'taradi. Agar madaniy hamkorlik bo'lmasa, unda sintez amalga oshmaydi.

Shuningdek, barcha mamlakatlar ham o'zlarining rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda dunyoviy taraqqiyot modelini qabul qila olmaydilar. Masalan, Vatikan va Saudiya Arabistoni qirolligini dunyoviy taraqqiyot modelidagi davlat sifatida tasavvur etish qiyin. Ularning asrlar davomida ko'pgina madaniy komponentlar ta'sirida shakllangan teokratik rejimi dunyoviy davlatning elementlariga o'xshash belgilarga ega emas. Ba'zi davlatlar, xususan, O'zbekiston ham dunyoviy demokratik taraqiyot klassik modelining yangi iqtisodiy, siyosiy, geografik va boshqa shartlaridan foydalangan. Birinchi navbatda, davlatning diniy birlashmalar bilan teng huquq asosida muloqot qilishi va ularning maqomi qonuniylashtirilishi shular jumlasidandir.

Umuman, dunyoviy davlat mavzusi tahlil qilinayotganda ko'pgina ekspertlar demokratik asoslarsiz dunyoviy davlat mavjud bo'lmasligini, demokratiya vijdon erkinligi prinsiplarini, mafkuraviy xilma-xillik va fuqarolik jamiyatini shakllantirish tamoyillarini kafolatlaydi, demokratiyasiz dunyoviy davlat faqat rasmiy ravishda mavjud bo'lishi mumkin, degan fikrdalar [16]. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ... dunyoviy davlat – bu shunday davlatki, uning ligitimligi hech qanday din va mafkuralar bilan bog'lanmagan. Davlatning mutloq suverenligi biror diniy aqida yoki mafkuralarga bo'ysunmaydi va ular oldida majburiyatga ega emas. Davlat din, diniy tashkilotlar va mafkuralarning bosimi, sanksiyalaridan xolidir. Davlat boshqaruva tizimida o'z qonunlari va huquqiy normalariga tayanadi. Davlat boshqaruvi organlari o'z siyosatini ochiqlik, oshkorlik, shaffoflik prinsiplariga tayangan holda amalga oshiradi. Davlat boshqaruvida ijtimoiy-siyosiy institutlarning roli va mavqeい juda yuqori bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki, dunyoviy davlat va demokratiya bir-biriga bog'liq emas, ammo o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijasi sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda davlatning dunyoviylik modelining shartlari va xususiyatlari dunyoviy demokratik davlat maqomiga da'veo qilayotgan barcha davlatlar tomonidan ham amaliyotga keng tadbiq etilmayapti. Global integratsiya jarayonlari, avvalambor, iqtisodiy xususiyatlar ob'ektiv migratsiyani vujudga keltiradi. Natijada bir millatli hududlar ham turli millatlar, madaniyatlar, demakki, qarashlar, e'tiqodlar va dinlar yashayotgan ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali davlatga aylanmoqda. Ko'pmillatli davlatlarning o'sish tendensiyasi bugungi kunda ilm-fan oldiga turli manfaatlar mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan yangi konstruksiya, model va mexanizmlarni yaratish maqsadi hamda vazifalarini qo'ymoqda. O'zbekistonning dunyoviy demokratik taraqqiyot yo'li bu nafaqat millatlararo va dinlararo

mojarolarni hal qilish, balki ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni ham ildizi bilan yo'qotishga qodir bo'lgan pozitiv yo'ldir.

Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan shakllantirilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan yangi bosqichga ko'tarilgan dunyoviy demokratik taraqqiyot yo'limiz xalqaro munosabatlarda umuminsoniy manfaatlarni ta'minlashga qaratilganligi, dunyoviy fanlarning ilmiy yutuqlariga (zamonaviy axborot texnologiyalaridan davlat boshqaruvida keng foydalanishga intilish, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining tashkil etilishi va h.k.) tayanganligi, islomgacha bo'lgan va undan keyingi diniy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash munosabatini shakllantirishga yo'naltirilganligi, zamonaviy innovations g'oyalarni amalda qo'llash tamoyillariga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Shu boisdan ham, "Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratildi" [17]. Demokratiyaning insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 19-sentabrdagi "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 5542-sonli Farmoniga asosan terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan, o'z qilmishining huquqqa xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo'liga o'tgan fuqarolarga Vataniga, oilasi bag'rige, tinch hayotga qaytish imkonii berildi [18]. Jamiyatimiz o'z rivojlanishining hozirgi pallasini o'tmish merosga nisbatan dunyoviy mezonlarga suyanib "buyuk saralash" davri deb hisoblash mumkin.

Diniy g'oyalarni anglash va o'rganish, hozirgi vaqtida keng qamrovli islohotlarni o'tkazish jarayonida jamiyatni ma'naviy boyitish, milliy ongimizni yanada yuksaltirish, kelajagi buyuk davlatni yaratuvchi yosh avlodni diniy va dunyoviy jihatdan ma'rifatli qilib tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizga hurmat-ehtirom ruhida kamol topishlari uchun muhim omillardan biridir. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy g'oyamizning mantiqiy davomi bo'lgan Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlarning ijrosi O'zbekistonda dunyoviylilik va diniylik muvozanatini ta'minlashning ma'naviy-ma'rifiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Jild 1.- Toshkent, "O'zbekiston" NMIU,2017.- B. 102-103.
2. Хантингтон С. Столкновения цивилизации.-Москва, ACT, 2005
3. Понкин И. Понятийный аппарат в проблеме светского государства и образования / / Государственная служба. — 2002, -№5

4. Вероисповедная политика Российского государства: Учебное пособие/Отв. ред. МО. Шахов. – Москва, Изд-воРАГС, 2003
5. Деникаева С.Э. Конституционно-правовые основы формирования Российской Федерации как светского государства: (Афтореферат) канд. юрид.наук. Махачкала, 2006
6. Хантингтон С. Столкновения цивилизации.-Москва, АСТ, 2005. – С. 16.
7. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – Toshkent, O'zbekiston, 1996. - В. 351.
8. Karim T. Dunyoviylik falsafasi. Maqolalar to'plami. //Dunyoviylik falsafasi. Toshkent. 2007. - В.23.
9. Понкин И. Понятийный аппарат в проблеме светскостигосударства и образования / / Государственная служба. — 2002, №5. - С. 118.
10. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, O'zbekiston. 2017. - В. 19-21. / Smolenskiy M.B. Konstitutionnoe (gosudarstvennoe) pravo Rossii. Rostov n/D: Feniks, 2002. S.161.
11. Вероисповедная политика Российского государства: Учебное пособие/Отв. ред. МО. Шахов. – Москва, Изд-воРАГС, 2003. -С. 201.
12. Цит. по: Мирошникова Е М. Государство и нетрадиционные религиозные движения в ФРГ. — Тула, 1997. — С. 1.
13. Вероисповедная политика Российского государства: Учебное пособие / Отв. ред. М.О. Шахов. — Москва, Изд-воРАГС, 2003. -С. 186.
14. Деникаева С.Э. Конституционно-правовые основы формирования Российской Федерации как светского государства: (Афтореферат) канд. юрид.наук. Махачкала, 2006. - С.16.
15. Ромашко А.В. Взаимодействие светского и сакрального начал в процессе формирования и развития правовых систем: (Афтореферат) канд. юрид.наук. Краснодар, 2005. - С.129.
16. Понкин И.В. Современное светское государство: Дис. ... д-ра юрид. наук. Москва., 2004.- С. 9.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-Toshkent, "O'zbekiston", 2019. - В. 58.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruuhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi", 2018-yil 20-sentyabr.